



**CURRENCY POLICY LIBERALIZATION IS AN IMPORTANT
CONDITION FOR ECONOMIC GROWTH**

Jakhongir Tokhirov

Head of department,
Institute for Legislative Analysis and
Regulatory Impact Assessment
under the Ministry of Justice

Abstract: This article analyzes the currency policy liberalization reforms implemented in Uzbekistan in 2017. Through these reforms, free access to foreign currency was granted to all entrepreneurs and individuals, bureaucratic barriers and sectoral privileges were abolished, and as a result exports and investments were stimulated, business activity increased, and overall economic prosperity was strengthened.

Keywords: *liberalization, export, import, convertibility, investment, foreign currency*

**VALYUTA SIYOSATINI LIBERALLASH TIRISH IQTISODIY
O‘SHISHNING MUHIM SHARTI**

Jaxongir Toxirov

Adliya vazirligi huzuridagi
Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga
solish ta’sirini baholash instituti
bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2017-yilda O‘zbekistonda valyuta siyosatini liberallashtirish islohotlari tahlil qilinadi. Islohotlar orqali barcha tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun xorijiy valyutaga erkin kirish, byurokratik to‘siqlar va tarmoq imtiyozlari





bekor qilindi, natijada eksport va investitsiyalar rag‘batlantirildi, biznes faolligi oshirildi va iqtisodiy farovonlik mustahkamlandi.

***Kalit so‘zlar:** liberallashtirish, eksport, import, konvertatsiya, investitsiya, xorijiy valyuta*

2017-yilga qadar, 20 yildan ortiq davom etgan valyuta muomalasi sohasining haddan ziyod ma‘muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun imtiyoz va preferensiyalarning asossiz ravishda kam samarali bo‘lgan tizimini shakllantirdi, biznes yuritishda teng bo‘lmagan shart-sharoitlarning vujudga kelishi va raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keldi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirishda, umuman, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida to‘sqinlik qiluvchi omilga aylandi.

Ushbu salbiy omillarni bartaraf etish maqsadida, 2017-yilning sentyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev mamlakatda valyuta siyosatini liberallashtirish islohotlarini o‘z ichiga olgan muhim “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-son farmoni imzoladi. Milliy iqtisodiyotni dunyoga ochish va valyuta ayirboshlash operatsiyalaridagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutgan ushbu iqtisodiy islohot fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi ijobiy imkoniyatlarni taqdim etishni nazarda tutgan edi:

- ✓ yuridik va jismoniy shaxslarga valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan to‘liq foydalanish imkoniyatini berish;
- ✓ faqat erkin suzuvchi, bozor tomonidan belgilanadigan kurslardan foydalanish;
- ✓ valyuta bozorida barcha subyektlar uchun teng sharoitlar yaratish;
- ✓ eksport hajmini oshirishni qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jozibadorligini rag‘batlantirish;
- ✓ biznes muhiti va faolligini yaxshilash;





✓ mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Barcha uchun valyuta ayirboshlash huquqlarini teng ta'minlanishi

1996-yilda O'zbekiston valyutani ayirboshlash (konvertatsiyasi) ustidan qat'iy nazorat joriy etdi va yillar davomida uni yanada kuchaytirib, ham tadbirkorlik subyektlari, ham fuqarolar uchun xorijiy valyutadan foydalanish imkoniyatini turli byurokratik cheklovlar orqali cheklab bordi. Shu sababli, valyutani liberallashtirish islohotining asosiy maqsadlaridan biri barcha tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslarga tijorat banklarida xorijiy valyutani cheklovlarsiz sotish va sotib olish imkoniyatini kafolatlash edi. Ushbu islohot doirasida xalqaro savdo ishtirokchilarining barchasi uchun valyuta ayirboshlash huquqi ta'minlandi va jismoniy shaxslarga o'z mablag'larini xorijiy valyutada erkin tasarruf etish imkoniyati yaratildi.

Xususan, endilikda barcha tadbirkorlik subyektlari tovarlar importini amalga oshirish, foydani repatriatsiya qilish, kreditlarni qaytarish, xizmat safarlari xarajatlarini to'lash va boshqa tijorat va notijorat maqsadlari uchun o'z mablag'larini banklarda erkin ravishda xorijiy valyutaga konvertatsiya qilishlari mumkin.

Valyutani liberallashtirish islohoti tufayli barcha jismoniy shaxslar tijorat banklarida xorijiy valyutani sotib olish va sotish, sotib olingan mablag'larni xalqaro to'lov kartalariga o'tkazish hamda ulardan chet elda cheklovlarsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Raqobatni buzuvchi tarmoq imtiyozlari va talablarni bekor qilish

Valyutani liberallashtirish islohoti amalga oshirilishidan oldin ham tadbirkorlik subyektlari, ham jismoniy shaxslar uchun xorijiy valyuta operatsiyalarini bajarishda muayyan talablar mavjud edi.

Eksporthilar o'zlarining xorijiy valyuta tushumlarining 50 foizdan 100 foizigacha bo'lgan qismini rasmiy kurs bo'yicha davlatga topshirishlari shart edi. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar xorijiy valyuta olish yoki foydani repatriatsiya





qilish uchun vakolatli organlardan maxsus ruxsatnoma olishlari lozim bo'lgan va bu kabi byurokratik cheklovlar uzoq kechikishlar hamda xorijiy valyutadan yetarli foydalanish imkoniyatining yo'qligi bilan kechgan.

Jismoniy shaxslarga xorijiy valyutani faqat oz miqdorda, asosan xorijda ta'lim olish yoki davolanish maqsadlari uchun sotib olishga ruxsat berilgan edi.

Investitsiya va strategik tovarlarni import qiluvchi, farmatsevtika sohasida ijtimoiy ahamiyatli iste'mol tovarlari va energetika sohasidagi davlat korxonalari kabi bir qator imtiyozli tarmoqlar turli valyuta kurslari orasidagi arbitrajdan foyda qilishiga olib kelgan. Natijada, ushbu barcha noteng imtiyozlar va afzalliklar biznes faoliyatining pasayishiga olib kelib, kichik va o'rta biznesni rivojlanishini cheklab, mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini oshishiga sabab bo'lgan.

Mazkur valyutani liberallashtirish islohoti natijasida yuqorida keltirilgan sog'lom raqobatni buzuvchi, biznes muhiti hamda fuqarolar manfaati va yakunda iqtisodiy farovonlikka salbiy ta'sir qiluvchi barcha cheklovlar bekor qilindi.

Ta'kidlash o'rinliki, 2017-yilda amalga oshirilgan valyuta siyosatini liberallashtirish islohotlari O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va biznes muhitini yaxshilashda muhim qadam bo'ldi. Ushbu islohotlar barcha tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar uchun xorijiy valyutaga erkin kirish imkonini yaratdi, teng raqobat muhitini ta'minladi va raqobatni buzuvchi tarmoq imtiyozlari hamda byurokratik cheklovlarni bekor qildi. Shu orqali eksport va investitsiyalarni rag'batlantirish, biznes faolligini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va umumiy iqtisodiy farovonlikka hissa qo'shish imkoniyati paydo bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 5-sentabrdagi PF-5177-son Farmoni URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3326421>;





JOURNAL OF ECONOMICS AND TOURISM RESEARCH

VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

2. Anderson, K., Ginting, E. and Taniguchi. K. (2020) Uzbekistan country diagnostics study: Quality job creation as a cornerstone for sustainable economic creation, ADB. URL:<https://www.adb.org/publications/uzbekistan-job-creation-economic-growth>;

3. Tsereteli, M. (2018). The Economic Modernization of Uzbekistan. A Joint Transatlantic Research and Policy Center.

URL: <https://www.silkroadstudies.org/resources/pdf/SilkRoadPapers/2018-04-Tsereteli-Uzbekistan.pdf>;

4. Holzhacker, H. (2018). Uzbekistan Diagnostic: Assessing Progress and Challenges in Unlocking the Private Sector's Potential and Developing a Sustainable Market Economy. EBRD. URL: <https://www.ebrd.com/publications/country-diagnostics>;

5. Lagarde, Ch. (2019). Uzbekistan's Reforms: A New Equation for Inclusive Growth and Cooperation. Speech delivery.

URL: <https://www.imf.org/en/News/Articles/2019/05/17/sp051719-lagarde-uzbekistan-reforms-a-new-equation-for-inclusive-growth-and-cooperation>;

6. World Bank Systematic Country Diagnostics for Uzbekistan (2016).

URL:<https://documents1.worldbank.org/curated/en/304791468184434621/pdf/106454-REVISED-PUBLIC-SecM2016-0167-1.pdf>

